




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MANFAATLAR DINAMIKASIDA RASMIY-HUQUQIY ISLOHATLAR PROGRESSIYASI

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston milliy universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti, Siyosatshunoslik yo'nalishi

Siyosat-22/A1 guruhi 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14636500>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 3-yanvar 2025 yil

Ma'qullandi: 5-yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 13-yanvar 2025 yil

O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini, davlat boshqaruvi, tashqi siyosat, normativ-huquqiy hujjatlar, qonunlar va qonunchilik tizimi, global jarayonlar

ABSTRACT

Ushbu maqolada global jarayonlarda O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini dinamikasida amalga oshirilgan islohatlar, qonunlar va qonunchilik tizimi doirasidagi tashqi siyosiy masalalar, xalqaro munosabatlarga ta'sir etuvchi siyosiy jarayonlar va vaziyatlar haqida ilmiy ma'lumotlar beriladi. Maqola asosiy e'tiborni milliy manfaatlar progressiyasiga qaratadi, ya'ni aynan bir qonun hujjatlari, normalar emas, balki "Yangi O'zbekiston" taraqqiyotidagi milliy manfaatlarning uzluksizligi va davomiylik masalalari tahlil etiladi. Milliy manfaat definitsiyasi davlat boshqaruvi va siyosiy hokimiyat tizimida qanday pozitsiyaga egaligi turli fan olimlari va mutaxassislari tomonidan tadqiqot ishlarida asoslab beriladi. Maqola keng ilmiy jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

KIRISH.

Maqola mavzusining obyekti. O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ifoda etuvchi rasmiy-huquqiy asoslar mazkur maqolaning tadqiqot obyektidir. Tadqiqot obyekti ko'lami jihatidan katta hisoblanadi. Shu bois ham, maqola tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini rasmiy-huquqiy asoslari siyosiyatshunoslik va huquq fanlari nuqtai nazaridan "Yangi O'zbekiston" milliy taraqqiyoti uchun davlatda amalga oshirilgan islohatlar: qonunlar va qonunchilik tizimi hamda tashqi siyosat va xalqaro munosabatlar masalasini qamrab oladi va o'rganadi.

Maqolaning predmeti. Ushbu maqolada xalqaro siyosat maydonida O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini ifoda etuvchi hamda rasmiy-huquqiy asosi hisoblangan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar hamda global jarayonlarda O'zbekiston milliy manfaatlarini tadqiqot predmeti sifatida baholanadi.

Maqolaning maqsadi. "Yangi O'zbekiston" fenomenining davlat milliy manfaatlar portretini ifodasi bo'lgan turli rasmiy-huquqiy asoslarni tadqiq etish, uning global jarayonlaridagi xalqaro pozitsiyasini hamda ta'sirining ko'lamini ochib berish hisoblanadi. Ushbu maqsad O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarini borasidagi nazariy va amaliy jarayonlarni qamrab oladi.

Maqolaning vazifalari. Ushbu maqola maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarining rasmiy-huquqiy asosi bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, dolzarbligi, zaruratini baholash;
- Keng milliy islohatlarni O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarida tutgan pozitsiyasini aniqlash va uning ahamiyatini tahlil qilish;
- O'zbekiston Respublikasidagi modernizatsion, zamonaviy taraqqiyot bosqichida islohatlardagi dinamik jarayonlar, o'zgarishlar, kamchiliklar va buning milliy manfaatlariga ta'sirini o'rganish;
- Global jarayonlar sharoitida O'zbekiston Respublikasining rasmiy-huquqiy asoslaridan kelib chiqib tanlangan yo'llar, konfliktlar va nizolar vaqtidagi moslashuvchanlik hamda o'zgaruvchanlik jarayonlarini tahlil etish.

Yuqoridagi belgilangan vazifalar bir qator ilmiy tadqiqot ishlari va manbalari asosida O'zbekiston Respublikasi ilm-fan mutaxassislari va xalqaro darajadagi milliy manfaatlar borasida hissa qo'shgan vakillari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlari asosida yoritib beriladi.

Maqolada "islohatlar" tushunchasi asosan, qonunchilik tizimi va normativ-huquqiy hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlariga ta'sirini tahlil etadi.

Ma'lumot o'rnida, so'nggi yillarda respublikamizda norma ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan yaxshilash, amalga oshirilayotgan islohotlarning institutsional-huquqiy bazasini yangilash, eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normalarni bekor qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, qonunchilikdagi tizimli o'zgarishlar bilan bog'liq jadal rivojlanish tartibga solish yukini kamaytirish, tarqoq holda tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarni tizimlashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.¹

METODOLOGIYA VA NAZARIY ASOSLAR.

Hozirgi dunyo taraqqiyoti shunday kechmoqdaki, bugun har qanday davlat xalqaro siyosatda o'z ustuvorligini faqat oshkora ma'rifiy tashqi siyosat orqali saqlab turishi va shunga yarasha legitimlikka erishishi mumkin. Xalqaro siyosat maydonida siyosiy jarayon tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishning birdan-bir yo'li -ma'rifiylik, ya'ni kuch ishlatishni mutloq inkor etgan tashqi siyosiy faoliyat bo'lishi mumkin. Tashqi siyosatni mafkuradan holi etish xavfsizlikni ta'minlashning muhim kafolati bo'lib, uni muayyan mafkuraviy aqidalarga emas, balki xalqaro huquqning barcha tan olgan qoida va mezonlari asosida qurmoq lozim.² (Izoh: ma'rifiylik tushunchasi normativ-huquqiy hujjatlar yoki rasmiy-huquqiy asoslar ma'nosida qo'lanilgan.)

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019-yil 7-dekabr O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 27-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi maruzasida davlatning qonunchilik tizimi haqida quyidagicha to'xtaladi:

"Qonunlar ijrosini samarali tashkil etish, tizimli muammolarni oldindan ko'ra bilish, qonun buzilishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bilan birga bunday holatni barvaqt bartaraf

¹ 2022-yil 21-iyuldagi Qonunchilik bazasini yanada tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 396-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6124323>

² Odilqoriyev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. 279 b.

etishga qaratilgan tizimni shakllantirish ayniqsa dolzarbdir. Afsuski, ushbu talablar bizda hali to'liq bajarilmoqda, deb ayta olmaymiz.³

O'zbekiston Respublikasi qonunlari progressiyasida milliy manfaat va tashqi siyosiy faoliyati hamda xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi bosh qonuni O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, "Tashqi siyosat konsepsiyasi" qonuni, milliy xavfsizlik masalalari va normativ huquqiy-hujjatlardagi qonunchilik tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohatlar masalasi O'zbekiston Respublikasi rasmiy-huquqiy asoslaridagi progression taraqqiyotiga erish yo'lida ekanligi aytish mumkin.

Bu borada O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimidagi amaliy islohatlarni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlar mavjudligini qayd etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur imkoniyatlardan biri eng avvalo, davlat boshqaruvi nazariyalariga oid tarixiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy ilmiy manbalarning mavjudligidir. Hozirgi kunda davlat boshqaruvi jarayonlarini demokratlashtirishda siyosiy tajribani har tomonlama tadqiq etish, xususan, Sharq va G'arb an'analari xos davlat boshqaruvining zamonaviy konsepsiyalarini qiyosiy o'rganish asosida samarali boshqaruv modellari hamda strategik rivojlanish dasturlarini amaliyotga tadbqiq etish masalasi har bir davlatning milliy taraqqiyoti uchun zarur bo'lib, u ham amaliy, ham nazariy ahamiyat kasb etmoqda.⁴ XXI asrga kelib, jahon hamjamiyatining rivojlangan davlatlarida demokratik davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanishining omili sifatida davlat boshqaruvi tizimiga samarali, ma'muriy mexanizmlarni qo'llash amaliyoti kuchaydi.⁵

NATIJALAR.

O'zbekiston ko'p yillik rivojlanishi davrida tashqi siyosatiga oid konstitutsion normalarni o'zida aks ettirgan ikki muhim hujjat qabul qilindi.

Birinchidan, 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi qonuni davlatning ko'p yillar mobaynida xalqaro munosabatlarda va tashqi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy faoliyatida muhim rol o'ynadi⁶. Biroq mazkur qonun 2012-yilda o'z kuchini yo'qotdi.

Ikkinchidan, davlat tashqi siyosatining fundamental prinsiplari va strategik ustuvor yo'nalishlari, milliy manfaatlari va ularni ilgari surish mexanizmlarini belgilab beruvchi o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan qarashlarning yaxlit tizimini o'zida mujassam qilgan yangi hujjat – "O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi" 2012-yil 10-sentabrda qabul qilindi.⁷

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik tizimi borasida keng ko'lamli islohatlar va o'zgartitishlar amalga oshirildi. O'zbekistonning tashqi siyosati va milliy xavfsizlik hamda milliy manfaatlarini ifoda etuvchi qonunlar jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendum natijasida Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining qabul qilinishi, tashqi siyosat masalasida "O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 10-sentabrda qabul qilingan O'RQ-330-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasiga

³ Mirziyoyev.Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. "O'zbekiston" 2020. 107 b.

⁴ Mizaaxmedov.K.M. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. Monografiya. Toshkent: "Ma'rifat", 2023. 8 b.

⁵ O'zbekiston milliy universiteti. "Siyosatshunoslik" kafedrası jamoasi. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik Toshkent: "Info Capital Books", 2024. 263 b.

⁶ Tursunov A.S. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va tashqi siyosat. – T: TDYUI, 2005. 21 b.

⁷ Biturayev O'.B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) Toshkent: "barkamol fayz media", 2017, 286 b.

o'zgartish kiritish to'g'risida"gi QL-415-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida⁸ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining qarorini ishlab chiqilishi hamda milliy xavfsizlik va milliy manfaatlarining boshqa huquqiy asoslarining yaratilishi buni tasdiqlaydi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, davlatlardagi qonunchilik tizimi progressiyasi davlatlarning hamkorlik tizimi, xalqaro tashkilotlarga a'zolik maslalarida hamda raqamli axborot texnologiyalarining rivojlanganligi natijasida keng ko'lamdagi islohatlarni talab etmoqda. Jumladan mazkur masalaga O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyev shunday to'xtaladi: "Ilg'or texnologiyalarning faol joriy qilinayotgani va global axborat-kommunikatsiya makoni taraqqiy etayotgani barcha jarayonlarni jadal va tez o'zgartirmoqda, qit'alar, mintaqalar, davlatlar va tashkilotlar darajasidagi hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bugungi hayotning o'zi eskicha yondashuvlar samarasiz ekanini yaqqol tasdiqlamoqda. Asosiy e'tiborni konstruktiv amaliy hamkorlikka qaratish lozim."⁹

O'zbekiston tashqi siyosatida yangi o'zgarishlar asosan, 2017-yildan boshlandi. O'tkan yetti yil ichida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yangicha munosabatlar – o'zaro integratsiyalshuv jarayonlari shakllandi. Albatta, O'zbekiston tashqi siyosati asosan, milliy manfaatlar, tinchlik, barqarorlik, hamkorlik kabi inson farovon hayotini ta'minlashi uchun zarurat sezadigan qadriyatlar asosida amalga oshirilmoqda.¹⁰

MUHOKAMALAR.

"Tashqi siyosat", "xalqaro munosabatlar", "jahon siyosati", "xalqaro maydon", "milliy manfaat", "milliy xavfsizlik" tushunchalari to'rt soha: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy tarmoqlarda ham muhim ahamiyatga ega. Yuqorida qayd etilgan tushunchalar asosan tashqi omillarga emas, balki ichki omillarga ko'proq aloqador. Xususan, har bir davlat qonunchilik tizimidagi murakkablik va soddalik, qiyin va oson yechim, muammo va yechimga ega javob albatta, huquqiy asoslarga murojaat qiladi. Huquqiy asoslar esa, davlatning hududiy, status va nufuziga ham jiddiy ta'sir kuchiga egadir. O'zbekiston Respublikasining 1991-yildagi qonunchilik tizimi va 2024-yildagi qonunchilik tizimi institutsional hamda funksional jihatdan tahlil qilinganda, o'zaro, farqlar va imkoniyatlar shakllanganligini yoki paydo bo'lganligini keltirish mumkin. Bunda milliy manfaatlarining ham pozitsiyasi inobatga olingan va asos sifatda ko'rilgan.

O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlarida ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik, tashqi siyosat haqida to'xtalganda, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning xalq bilan muloqatida bo'lgan nutqida shunday keltiriladi:

"Tashqi siyosatimizning asosiy mazmun-mohiyati – tinchliksevarlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, yuzaga keladigan ziddiyat va qarama-qarshiliklarni faqat tinch, siyosiy yo'l bilan hal etish, barcha xorijiy davlatlar va jahon hamjamiyati bilan amaliy hamkorlik qilishdan iborat. Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi

⁸ "O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 10-sentabrda qabul qilingan O'RQ-330-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasiga o'zgartish kiritish to'g'risida"gi QL-415-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida 2018-yil 21-sentabrdagi O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi qarori. <https://lex.uz/docs/-5189655>

⁹ Mirziyoyev Sh.M. xalqimiz rozligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: "O'zbekiston" 2018. 327 b.

¹⁰ Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. – Toshkent: "Sharq", 2024. – 477 b.

navbatda, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifasi deb bilamiz.¹¹

Davlatning xalqaro maydondagi statusi, nufuzi va legalligining barcha ko'rinishi mana shu rasmiy huquqiy asoslarning mavjudligi va kuchli o'ringa ega bo'lishidadir. Shuning bilan birga bu ko'proq davlat boshqaruvi masalasiga ham aloqador hisoblanadi.

Yuqorida davlat boshqaruvi masalasi keltirib o'tildi. Bu masala ko'p tomonlama milliy manfaatlardagi markaziy nerv sistemasi singari, boshqaruvchi, tashkil etuvchi, tartibga soluvchi, rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va yo'naltuvchi funksiyalarga ega hisoblanib, bu global jarayonlar sahnasidagi o'z roli va ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Yuqorida davlat boshqaruvi masalasi keltirib o'tildi. Bu masala ko'p tomonlama milliy manfaatlardagi markaziy nerv sistemasi singari, boshqaruvchi, tashkil etuvchi, tartibga soluvchi, rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va yo'naltuvchi funksiyalarga ega hisoblanib, bu global jarayonlar sahnasidagi o'z roli va ahamiyatiga ega hisoblanadi.

Shu o'rinda "Davlat boshqaruvi – davlat hokimiyatini qonuniy asosda tashkil etish usullari majmui bo'lib, insonlarning ijtimoiy hayot faoliyatlariga davlatning amaliy, tashkiliy va tartibga soluvchi ta'siridir."¹²

Xalqaro munosabatlarning asosiy tushunchasi bo'lgan milliy manfaatlar o'z ichiga davlatning siyosiy manfaatlari, xavfsizlik manfaatlari, iqtisodiy manfaatlari, madaniy manfaatlari va boshqa manfaatlarni qamrab oladi. Davlat suvereniteti negizida davlatning siyosiy manfaatlari milliy manfaatlarning asosiy qismini o'zida mujassam etadi, milliy xavfsizlik va milliy manfaatlarning eng asosiy hisoblanadi. Milliy manfaatlar konsepsiyasi insonning milliy manfaatlar tarkibi, uning ahamiyati maqsadi, qadriyatlari va ushbu qadriyatlarni ro'yobga chiqarish yo'llari haqidagi fundamental tasavvurlarini aks ettiradi. Strategik taffakkurning achralmas qismi sifatida milliy manfaatlar konsepsiyalari ishlab chiqilgandan so'ng, milliy strategiyalar ishlab chiqilishni boshladi. Kognitiv nuqtai nazardan milliy manfaat subyektning taffakkur tarzi madaniy aloqalar, qadriyatlar, an'analar, mafkuralarga chuqur ta'sir qiladi.¹³

XULOSA

Demak, konstitutsiya barcha qonunlar uchun andoza va namunaviy xususiyatga ega hisoblansa, "O'zbekiston-2030" strategiyasi davlatning strategik imkoniyatlari rejasi hisoblanadi. Qonunlardagi yoki qonunchilik tizimidagi imkoniyatlar masalasi davlatning rivojlanish va taraqqiyot nuqtasidagi bosqichdir. Davlat boshqaruvi va siyosiy hokimiyat tizimida bu masala bir qator siyosiy jarayonlar orqali isbotlanmoqda. Jumladan, 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referdum. Undagi qonunchilik tizimidagi xalqaro tajribalar va amaliyotlarni qo'llash qobiliyati ya'ni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga kiritilgan zgarishlar bu davlatchilik rivojidagi imkoniyat hisoblanadi. 2024-yil 24-oktabrda o'tkazilgan Parlament saylovlarida ilk bora "aralash saylov" tizimini davlat boshqaruvida qo'llash va undan kelib chiqadigan natijalarning asoslari va yutuqlari ham global milliy manfaatlar sahnasida yangi pog'onalarni ochib bermoqda. Ya'n, strategiyalar ishlab chiqish masalasi O'zbekiston Respublikasi davlat bosharuvida 2017-yildan boshlab katta natijalarga erishdi. Uni aytadigan bo'lsak, strategi rejaliashtirish imkoniyatining rivojlantirilganligi – bu davlatning milliy

¹¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni marda va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston" 2017. 68 b.

¹² Mirzaaxmedov K.M.O'zbekistonda davlat boshqaruvi jarayonlarini demokratlashtirish evolyutsiyasi. Monografiya. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019. 107 b.

¹³ Zongyu Liu. The Concept of national Interests. China's Diplomacy. 2014. 121 p. https://www.worldscientific.com/doi/10.1142/9781938134395_0003?srsid=AfmBOoocLDQHqPBHe7V_3MOqo3Ef5w sigkMOBaKlHP7GvASDmlpTBJ7k

manfaatlarida maqsadlarni tanlash va ularga erishish uchun nima qilish kerakligi borasidagi texnologiyalarning ishlab chiqilishi. Bu sohada ham bir necha tadqiqot ishlari olib borilgan. Chet ellik olim Peter Drakerning "Menejement" asarida strategik rejalashtirish "Bugungi kunda orzu qilingan kelajakni yaratadigan qarorlar qabul qilishdir"¹⁴ deb ta'rif bergan. Imkoniyatlar ko'lamining tashkiliy bazalari uzliksizligi mavjud tahdidlar va muammolarni kamaytirishga yordam beradi hamda vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1) 2022-yil 21-iyuldagi Qonunchilik bazasini yanada tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 396-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6124323>
- 2) Odilqoriyev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008. 279 b.
- 3) Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. "O'zbekiston" 2020. 107 b.
- 4) Mizaaxmedov K.M. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillashtirish mexanizmlari. Monografiya. Toshkent: "Ma'rifat", 2023. 8 b.
- 5) O'zbekiston milliy universiteti. "Siyosatshunoslik" kafedrasida jamoasi. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik Toshkent: "Info Capital Books", 2024. 263 b.
- 6) Tursunov A.S. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va tashqi siyosat. – T: TDYUI, 2005. 21 b.
- 7) Biturayev O.B. Siyosatshunoslikka kirish (o'quv qo'llanma) Toshkent: "barkamol fayz media", 2017, 286 b.
- 8) "O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 10-sentabrda qabul qilingan O'RQ-330-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasiga o'zgartish kiritish to'g'risida"gi QL-415-sonli O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi haqida 2018-yil 21-sentabrdagi O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi qarori. <https://lex.uz/docs/-5189655>
- 9) Mirziyoyev Sh.M. xalqimiz rozligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Toshkent: "O'zbekiston" 2018. 327 b.
- 10) Qirg'izboyev M. Siyosatshunoslik: oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti. – Toshkent: "Sharq", 2024. – 477 b.
- 11) Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni marda va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: "O'zbekiston" 2017. 68 b.
- 12) Mirzaaxmedov K.M. O'zbekistonda davlat boshqaruvi jarayonlarini demokratlashtirish evolyutsiyasi. Monografiya. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019. 107 b.
- 13) Zongyu Liu. The Concept of national Interests. China's Diplomacy. 2014. 121 p. https://www.worldscientific.com/doi/10.1142/9781938134395_0003?srsId=AfmB0oocIDQHqPBHe7V_3MOqo3Ef5wsigkMObaKlHP7GvASDmlpTBJ7k
- 14) Peter F. Drucker, Management, 1973p. 121

¹⁴ Peter F. Drucker, Management, 1973p. 121